

Methods Of Increasing The Competitiveness Of Small Enterprises In Global Markets

Nusratullayev Burxonjon Baxromjon o'g'li

2nd year master's student of Kokand University

ORCID: 0009-0009-5058-2604

mail: Burkxonjon505@gmail.com

ABSTRACT

The article examines increasing the competitiveness of small enterprises in global markets. Based on Porter and Schumpeter theories, statistical analysis of Uzbekistan's small enterprises (2020-2025) was conducted with surveys of 250 managers and 50 experts. Results show that in 2024, small business share in GDP was 54.3%, employment 74%, exports 33.3%. Competitiveness index is 46.7 points (developed countries 77.4), weakest components: export potential (38), innovation (42), technology (44). Key impact factors: innovation investments ($r=0.82$), staff qualifications ($r=0.76$), government support ($r=0.71$).

Keywords: small enterprises, global markets, export potential, digital transformation, government support, Porter model.

ANNOTATSIYA

Tadqiqotda kichik korxonalarining global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish masalalari tadqiq qilingan. Nazariy asosini Porter, Schumpeter nazariyalari va raqamli iqtisodiyot yondashuvlari tashkil etadi. O'zbekiston kichik korxonalarining 2020-2025 yillar faoliyati statistik tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 2024-yilda kichik biznesning YalMdagi ulushi 54,3%, bandlikda 74%, eksportda 33,3% ni tashkil etdi. Raqobatbardoshlik indeksi 46,7 ball (rivojlangan mamlakatlar 77,4), eng zaif komponentlar: eksport salohiyati (38), innovatsiyalar (42), texnologik jihozlanganlik (44). Korrelyatsion tahlil natijasida eng ta'sirli omillar aniqlandi: innovatsiya investitsiyalari ($r=0,82$), kadrlar malakasi ($r=0,76$), davlat qo'llab-quvvatlashi ($r=0,71$).

Kalit so'zlar: kichik korxonalar, global bozorlar, raqobatbardoshlik omillari, eksport salohiyati, raqamli transformatsiya, davlat qo'llab-quvvatlashi, Porter modeli.

Kirish. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan globallasuvi, xalqaro savdo iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi va texnologik taraqqiyotning jadal rivojlanishi sharoitida kichik korxonalarining global bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta biznes subyektlari jami korxonalar sonining 90 foizdan ziyodini tashkil etib, mehnatga layoqatli aholining 50 foizdan ortig'ini ish bilan ta'minlamokda.

XXI asrda raqobat muhitining keskin o'zgarishi, global bozorlarning liberallasuvi hamda innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi kichik korxonalar oldiga yangi

imkoniyatlar va qiyinchiliklar qo'ymoqda. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va xalqaro bozorlardagi mavqeini mustahkamlash ko'p jihatdan kichik biznes subyektlarining global raqobatbardoshlik darajasiga bog'liq. Global bozorlar talablariga javob bera oladigan, innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq qiluvchi kichik korxonalar mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish hamda milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiya jarayonlariga muvaffaqiyatli qo'shilishida muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston uchun ushbu masala yanada dolzarb hisoblanadi, mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli

iqtisodiy islohotlar, ayniqsa, so'nggi yillarda kichik biznesni rivojlantirish va uning xalqaro bozorlarga chiqishini ta'minlash yo'nalishida qabul qilingan bir qator davlat dasturlari, Prezident farmon va qarorlari bu masalaning ustuvor ahamiyatini tasdiqlaydi. Mamlakatimizda kichik korxonalarining xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lishi va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishi iqtisodiy o'sish, aholi bandligini oshirish, innovatsion rivojlanishni ta'minlash kabi muhim vazifalarni hal etishda asosiy omil hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlar va O'zbekiston amaliyotiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning o'rni tobora ortib bormoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuni bo'yicha yalpi ichki mahsulotning 54,3 foizi, sanoatning 32,4 foizi, eksportning 33,3 foizi kichik va o'rta biznes subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bugungi kunda 283,9 ming nafar yakka tartibdagi tadbirkorlar va 905,8 ming kichik va o'rta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, ushbu sohada 10,5 million aholi band (jami band aholining 74 foizi)¹.

2025-yilning birinchi choragida O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 6,8 foizga o'sdi, bu ko'rsatkich o'tgan yillardan yuqori. Mazkur davrda kichik biznes subyektlarining ulushi 72,3 foizni tashkil etib, 7,8 foiz o'sish ko'rsatdi. Eksport bo'yicha, 2024-yilda 1,8 milliard AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari 55 ta davlatga eksport qilindi, bu umumiy eksportning 12 foizini tashkil etdi².

2025-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi 7,2 foizni tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasi 16,1 foizga oshdi, eksport 29,2 foizga o'sdi. Mamlakatda 442,4 ming korxona faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 372,9 mingtasi

kichik va mikrofirmalar. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 15 739 tani tashkil etadi³.

Shu bilan birga, O'zbekiston kichik biznesining eksportdagi ulushi rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlaridan ancha past. Xitoyda kichik va o'rta korxonalar yalpi ichki mahsulotining 60 foizini yaratsa, Germaniyada 55 foiz, AQSh va Yaponiyada 50 foizni tashkil etadi. Bu O'zbekistonda kichik korxonalarining global bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqot yuzasidan kichik biznesni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ko'rilmoqda shu yuzasidan prezident qarorlari va davlat siyosati qo'llanilmoqda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, ularning eksport salohiyatini oshirish va global bozorlarga chiqishini ta'minlash bo'yicha bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan. 2025-yil 19-martda tasdiqlangan ushbu Farmon doirasida 2025-2030-yillarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Asosiy maqsad sifatida 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot hajmini 200 milliard AQSh dollariga yetkazish belgilangan. Farmon bo'yicha o'z faoliyatini yiriklashtirgan tadbirkorlik subyektlariga garovsiz kreditlar (50 million so'mdan 150 million so'mgacha) beriladi hamda qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash tezlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi⁴.

Ushbu hujjatlar kichik korxonalarni global bozorlarda raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash, ularning eksport salohiyatini oshirish va xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish bo'yicha davlat siyosatining ustunligini ko'rsatadi. 2025-yilda kichik va o'rta biznesga 120 trillion so'm resurs berilishi rejalashtirilgan, bu esa

¹ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Yillik statistik to'plam 2020-2024. – Toshkent: Statistika agentligi, 2024.

² O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Ijtimoiy-iqtisodiy holat. 2025-yil 9 oy. – Toshkent, 2025.

³ Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi. Kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanishi hisoboti. – Toshkent, 2024.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son Farmoni.

sohaning rivojlanishi uchun kuchli moliyaviy baza yaratadi. Shunday qilib, kichik korxonalarni global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish muammosi nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot mamlakatimiz kichik biznes subyektlarining xalqaro raqobat qobiliyatini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish va global bozorlarga muvaffaqiyatli integratsiya jarayonlariga to'laqonli qo'shilishini ta'minlash yo'llarini aniqlashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Kichik biznesni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish masalalari jahon va mahalliy tadqiqotchilarning keng e'tiboriga sazovor bo'lgan. Xorijiy tadqiqotchilar, xususan, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganishda qator muhim ilmiy asarlar yaratilgan. Xitoyda kichik va o'rta biznesning eksportdagi ulushi 50 foizdan ortiq⁵, Koreya Respublikasida 40 foiz⁶, Germaniyada 55 foiz⁷, Yaponiya va AQShda 50 foizni tashkil etishi bu sohaning ahamiyati haqida so'zlaydi⁸.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida N. Egamgamberdiyeva iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishning muhim omillarini ko'rsatib o'tgan. I. Suvonov va A. Yoqubjonov kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmi va ularning eksportdagi ulushi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. Shuningdek, bir qator tadqiqotlarda kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rni, xalqarolashtirish jarayonlari va global bozorlarga chiqish mexanizmlari chuqur o'rganilgan⁹.

Biroq, mavjud tadqiqotlarda kichik korxonalarning global bozorlarda raqobatbardoshligini kompleks baholash, zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida ularning xalqaro raqobat qobiliyatini oshirish yo'llari va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

I. Suvonov va A. Yoqubjonov kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmi va ularning eksportdagi ulushi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdi¹⁰. Ularning tahlillari kichik biznesning mamlakat eksportida tutgan hissasini oshirish bo'yicha amaliy ko'rsatmalarni berdi.

Xursanaliyev (2024), Ismanov, Qudbiyev, Mamasolayeva (2022), Qulliyev (2024), Ne'matova (2023), Ikromov (2023) lar kichik biznes subyektlarining mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishda eksport salohiyatini oshirish, uni diversifikatsiyasini kengaytirish to'g'risida tadqiqotlar olib borilgan¹¹.

Raqobatbardoshlikni baholash metodologiyasi. M. Turdibayeva (2025) Maykl Porterning raqobatdoshlik ustunliklari modelidan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasining Toshkent viloyati eksport salohiyatini tahlil qildi¹². Porter yondashuvi va boshqa tahlil usullarining integratsiyasi eksport salohiyatining hozirgi holatini diagnostika qilish, mintaqaning raqobatbardosh ustunliklari doirasini aniqlash, strategik tashabbuslarning yo'l xaritasini ishlab chiqishga imkon berdi.

U. Gofurov kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini

⁵ SME Policy Environment Report: 2025 Update (EU SME Centre).

⁶ Ministry of SMEs and Startups (MSS) - Export Statistics 2024.

⁷ OECD - Exports by Business Size.

⁸ WTO World Trade Report 2025 - SME Participation.

⁹ Suvonov, I., & Yoqubjonov, A. (2024). Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi tahlili. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(5).

¹⁰ Suvonov, I., & Yoqubjonov, A. (2024). Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi tahlili. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(5).

¹¹ Xo'rsanaliyev M. O'zbekiston eksport salohiyatidan samarali foydalanishda kichik biznesning ahamiyatini oshirish yo'llari // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2024. – № 3. – B. 156-163.

¹² Turdibaeva M. O'zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati eksport salohiyati: Maykl Porterning raqobatdoshlik ustunliklari modeli asosida tahlil // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025. – № 1. – B. 28-39.

takomillashtirish masalalarini o'rgand¹³. S. Aleksandrov va R. Iskandarov raqamli iqtisodiyot orqali kichik biznesni rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini tadqiq qildilar¹⁴.

L. Gurov (2020) fikriga ko'ra, kichik biznes iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilaydi, moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslarini samarali taqsimlashga yordam beradi, ish o'rinlarini vujudga keltiradi¹⁵. U kichik biznes subyektlarining foyda solig'idan ozod etilganligi, ularga kredit va moliyaviy yordamlarning imtiyozli tarzda amalga oshirilishining ahamiyatini ta'kidladi.

Kichik korxonalarining global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish masalasi bo'yicha xalqaro va mahalliy tadqiqotlar muhim nazariy baza yaratgan. Biroq, zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida,

Jadval 1. Kichik biznesning YaIM va tarmoqlar bo'yicha ulushi (2020-2025)¹⁶.

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (9 oy)
YaIMdagi ulushi (%)	53,9	53,0	52,4	53,2	54,3	51,5
Sanoatdagi ulushi (%)	30,2	31,5	31,8	32,0	32,4	32,0
Qishloq xo'jaligida (%)	95,8	96,0	96,3	96,5	96,7	96,9
Qurilishda (%)	75,2	76,1	76,8	77,2	77,4	77,6
Xizmatlar sohasida (%)	43,8	44,5	44,9	45,0	45,2	45,1

2020-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda kichik biznesning YaIMdagi ulushi 53,9% dan 54,3% ga ko'tarildi (2024-yil), 2025-yil 9 oyida esa 51,5% ni tashkil etdi. Eng yuqori ko'rsatkich qishloq xo'jaligida qayd etilgan

raqamlashtirish va yangi texnologiyalar rivojlanishi, global qiymat zanjirlarining qayta tuzilishi kabi jarayonlarni hisobga olgan holda, yangi kompleks tadqiqotlar zarur. Bu tadqiqotlar nazariy jihatdan raqobatbardoshlik konsepsiyasini boyitishi, amaliy jihatdan esa O'zbekiston kichik korxonalarining global bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun mexanizmlar ishlab chiqishga hissa qo'shishi kerak.

Tadqiqot natijalari va tahlil. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi o'rne (2020-2025). Tadqiqot davomida to'plangan statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning o'rne tobora kuchayib bormoqda.

(96,9%), bu kichik fermalar va dehqon xo'jaliklarining ustunligini ko'rsatadi⁹. Sanoatda ulush bosqichma-bosqich o'sib, 2025-yilda 32% ga yetdi¹⁷.

¹³ Gofurov U. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: Iqt.fan.nomz. ... diss. avtoref. – T.: TDIU, 2020. – 24 b.

¹⁴ Aleksandrov S., Iskandarov R. Raqamli iqtisodiyot va kichik biznes // Zamonaviy iqtisodiyot. – 2024. – № 2. – B. 89-96.

¹⁵ Gurov L. Kichik biznesning iqtisodiy ahamiyati // Bozor, pul va kredit. – 2020. – № 6. – B. 34-42.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Yillik statistik to'plam 2020-2025

¹⁷ Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi. Kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanishi hisoboti

Jadval 1. Kichik biznesning YaIM va tarmoqlar bo'yicha ulushi (2020-2025)¹⁸.

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (9 oy)
YaIMdagi ulushi (%)	53,9	53,0	52,4	53,2	54,3	51,5
Sanoatdagi ulushi (%)	30,2	31,5	31,8	32,0	32,4	32,0
Qishloq xo'jaligida (%)	95,8	96,0	96,3	96,5	96,7	96,9
Qurilishda (%)	75,2	76,1	76,8	77,2	77,4	77,6
Xizmatlar sohasida (%)	43,8	44,5	44,9	45,0	45,2	45,1

2020-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda kichik biznesning YaIMdagi ulushi 53,9% dan 54,3% ga ko'tarildi (2024-yil), 2025-yil 9 oyida esa 51,5% ni tashkil etdi. Eng yuqori

ko'rsatkich qishloq xo'jaligida qayd etilgan (96,9%), bu kichik fermalar va dehqon xo'jaliklarining ustunligini ko'rsatadi. Sanoatda ulush bosqichma-bosqich o'sib, 2025-yilda 32% ga yetdi.

Jadval 3. Tadbirkorlik subyektlari soni (ming birlik)¹⁹.

Yil	YATT	Kichik korxonalar	Mikrofimlar	Jami KB subyektlari	1000 aholiga
2020	245,3	142,8	598,5	986,6	14,2
2021	258,7	156,4	625,3	1040,4	14,8
2022	271,5	168,9	654,7	1095,1	15,3
2023	275,8	182,5	712,4	1170,7	15,9
2024	283,9	195,2	710,6	1189,7	16,2
2025	287,4	201,8	714,6	1203,8	16,4

Kichik biznes subyektlari soni doimiy o'sib bormoqda. 2020-yildan 2025-yil boshigacha jami subyektlar soni 986,6 mingdan 1203,8 minggacha (22% o'sish) ko'tarilgan. Aholining 1000 nafar jon

boshiga kichik biznes subyektlari soni 14,2 dan 16,4 ga oshgan.

Jadval 4. O'zbekistonning tashqi savdosi (mlrd AQSh dollari)²⁰.

Ko'rsatkich	2022	2023	2024	2025 (yarim yil)	O'sish 2024/2023
Tashqi savdo aylanmasi	56,8	63,5	65,9	37,0	+3,8%
Eksport	19,8	24,9	26,9	16,9	+8,4%
Import	37,0	38,6	39,0	20,1	+0,8%
Saldo	-17,2	-13,7	-12,0	-3,2	-

2024-yilda tashqi savdo aylanmasi 65,9 mlrd dollarga yetib, 3,8% o'sdi. Eksport 8,4% ga oshib, 26,9 mlrd dollarni tashkil etdi. Muhimi, savdo balansi yaxshilanib, salbiy saldo 13,7 mlrd dollardan 12,0 mlrd

dollarga kamaydi. 2025-yil yarim yilida eksport 29,2% ga o'sdi.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Yillik statistik to'plam 2020-2025. – Toshkent: Statistika agentligi, 2024.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistika qo'mitasi stat.uz

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi. Tashqi savdo statistikasi 2024, World Trade Organization Statistics Database.

**Jadval 5. Asosiy eksport mahsulotlari
(2024-yil, mln AQSh dollari)²¹.**

Mahsulot turi	Hajm	Umumiy eksportdagi ulushi (%)	O'sish nisbatan	2023ga
Oltin	7 480	27,8	+8,3%	
To'qimachilik mahsulotlari	1 990	7,4	-3,7%	
Oziq-ovqat mahsulotlari	2 170	8,1	+22,4%	
Kimyoviy mahsulotlar	1 680	6,2	+29,1%	
Mashinasozlik	1 200	4,5	-7,9%	
Rangli metallar	1 490	5,5	+7,6%	
Boshqalar	10 900	40,5	-	

Eksportda oltin (27,8%) va to'qimachilik (7,4%) muhim o'rin tutadi. 2024-yilda kimyoviy mahsulotlar eksporti 29,1% ga, oziq-ovqat mahsulotlari 22,4% ga o'sdi. To'qimachilik eksporti 3,7% ga qisqardi, mashinasozlik esa 7,9% ga kamaydi.

Kichik korxonalarning raqobatbardoshlik darajasini baholash, Korrelyatsion-regressiya tahlili natijalari

Statistik tahlil natijasida kichik korxonalarning raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning ta'sir darajasi aniqlandi:

Jadval 11. Korrelyatsiya koeffitsiyentlari²².

Omil	Korrelyatsiya koeffitsiyenti (r)	Ta'sir kuchi
Innovatsiya investitsiyalari	0,82	Kuchli ijobiy
Xodimlar malakasi	0,76	Kuchli ijobiy
Davlat qo'llab-quvvatlashi	0,71	Kuchli ijobiy
Texnologik jihozlanganlik	0,68	O'rta ijobiy
Brendning tanilganligi	0,64	O'rta ijobiy
Eksport tajribasi	0,58	O'rta ijobiy
Korxona yoshi	0,35	Zaif ijobiy

Regressiya modeli:

$$Y = 12,5 + 0,45X_1 + 0,38X_2 + 0,32X_3 + 0,28X_4$$

Bu yerda:

- Y - raqobatbardoshlik indeksi
- X₁ - innovatsiya investitsiyalari (mln so'm)
- X₂ - xodimlar malakasi indeksi

• X₃ - davlat qo'llab-quvvatlashi hajmi (mln so'm)

• X₄ - texnologik jihozlanganlik darajasi (%)

Determinatsiya koeffitsiyenti: R² = 0,74, ya'ni modelga kiritilgan omillar raqobatbardoshlik o'zgarishining 74% ini tushuntiradi.

²¹ O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistika qo'mitasi stat.uz

²² Muallif ishlanmasi.

Jadval 12. Eksportga ta'sir etuvchi omillar regressiyasi²³.

Omil	Beta koeffitsienti	Ahamiyatliligi (p-value)
Mahsulot sifati	0,56	0,001***
Xalqaro sertifikatlar	0,48	0,003***
Marketing xarajatlari	0,42	0,008**
Ishlab chiqarish hajmi	0,38	0,015*
Narx raqobatbardoshligi	0,34	0,024*

*** p<0,001; ** p<0,01; * p<0,05

Mahsulot sifati ($\beta=0,56$) va xalqaro sertifikatlar ($\beta=0,48$) eksport hajmiga eng

kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu global bozorlarda sifat standartlarining ahamiyatini tasdiqlaydi.

Jadval 13. Kichik biznes ko'rsatkichlari: xalqaro qiyoslash²⁴.

Davlat	YalMdagi ulushi (%)	Eksportdagi ulushi (%)	Bandlikdagi ulushi (%)
O'zbekiston	54,3	33,3	74,0
Xitoy	60,0	50,5	80,0
Yaponiya	50,0	50,2	70,0
Germaniya	55,0	55,3	60,0
Janubiy Koreya	48,0	40,8	88,0
AQSh	50,0	50,0	48,0
Turkiya	52,0	48,5	76,5

O'zbekiston kichik biznesining YalMdagi ulushi (54,3%) xalqaro o'rtacha ko'rsatkichga yaqin. Biroq, eksportdagi

ulushi (33,3%) rivojlangan mamlakatlardan sezilarli darajada past. Bu eksport salohiyatini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Jadval 15. Kichik korxonalarning global bozorlarga chiqishdagi muammolari²⁵.

Muammo	Respondentlar ulushi (%)	Muhimlik darajasi (1-5)
Moliyaviy resurslar kamchiligi	78,4	4,8
Xalqaro standartlar bilimi yo'qligi	72,8	4,6
Yuqori logistika xarajatlari	68,2	4,4
Malakali kadrlar etishmasligi	65,6	4,3

²³ Muallif ishlanmasi.

²⁴ The World Bank Open Data, World Trade Organization Statistics Database, SME Competitiveness Outlook 2024

²⁵ Muallif ishlanmasi so'rovnoma natijalari

Bozor ma'lumotlari yo'qligi	62,4	4,2
Til to'sig'i	58,9	3,9
Brend va obro' yo'qligi	56,7	4,5
Me'yoriy hujjatlar murakkabligi	48,3	3,7

Jadval 16. Talab qilinadigan qo'llab-quvvatlash turlari

Qo'llab-quvvatlash turi	Ustunlik (%)
Imtiyozli kreditlar	82,4
Eksport subsid grantsiyalari	76,8
Bepul trening va konsalting	71,2
Xalqaro ko'rgazmalarga qo'llab-quvvatlash	68,4
Sertifikatsiyalashga yordam	65,6
Marketing xarajatlarini qoplash	62,8
Texnologik modernizatsiya grantlari	58,9
Eksport infratuzilmasi	54,3

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha

1. Ijobiy tendensiyalar:

- Kichik biznesning YalMdagi ulushi barqaror (51,5-54,3%)
- Bandlikda muhim o'rin (74%)
- Subyektlar sonining o'sishi (+22% 5 yilda)
- Iqtisodiy o'sish tezlashishi (2025-yilda 7,6%)

2. Muammoli joylar:

- Eksportdagi past ulush (33,3% vs 50% rivojlangan mamlakatlarda)
- Raqobatbardoshlik indeksining pastligi (46,7/100)
- Innovatsiya va texnologiya rivojlanishining sust sur'ati

8.2. Raqobatbardoshlik tahlili bo'yicha

1. Eng zaif komponentlar:

- Eksport salohiyati (38/100)
- Innovatsiyalar darajasi (42/100)
- Texnologik jihozlanganlik (44/100)

2. Asosiy raqobat ustunliklari:

- Mehnat resurslarining arzonligi
- Davlat qo'llab-quvvatlashi
- Geografik joylashuv

3. Ta'sir etuvchi omillar:

- Innovatsiya investitsiyalari ($r=0,82$)
- Kadrlar malakasi ($r=0,76$)
- Davlat qo'llab-quvvatlashi ($r=0,71$)

Bu natijalar kichik korxonalarning global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish uchun kompleks strategiya ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Kichik korxonalarning global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish masalasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Nazariy-metodologik xulosalar. Tadqiqot davomida kichik korxonalarning global bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari takomillashtirildi. Maykl Porterning raqobat ustunliklari nazariyasi, Shumpeterning innovatsiya konsepsiyasi, xalqarolashtirish bosqichlari nazariyasi va zamonaviy raqamli iqtisodiyot yondashuvlarini integratsiyalashtirgan holda kichik korxonalar uchun kompleks model ishlab chiqildi.

Kichik korxonalarning raqobatbardoshligini baholash metodologiyasi takomillashtirildi. Ishlab chiqilgan kompozitsion indeks ichki omillar (innovatsiyalar, sifat, moliyaviy barqarorlik, kadrlar), tashqi omillar (davlat qo'llab-quvvatlashi, infrastruktura) va eksport salohiyatini birlashtiradi. Bu metodologiya kichik korxonalarning global raqobat qobiliyatini obyektiv baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijasida aniqlandi ki, raqamli transformatsiya va Industriya 4.0 texnologiyalari kichik korxonalar uchun global bozorlarga kirish to'siqlarini sezilarli darajada pasaytiradi. E-commerce, raqamli marketing, bulutli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari kichik korxonalarga xalqaro hamkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish, xarajatlarni kamaytirish va yangi bozorlarni o'rganish imkonini beradi. O'zbekiston kichik biznesining hozirgi holati bo'yicha xulosalarga to'xtaladigan bo'lsak, 2024-yilda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 54,3%, bandlikdagi ulushi 74%, sanoatdagi ulushi 32,4% ni tashkil etdi. So'nggi 5 yilda (2020-2025) kichik biznes subyektlari soni 986,6 mingdan 1203,8 minggacha (22% o'sish) ko'tarildi. Biroq, kichik biznesning eksportdagi ulushi (33,3%) rivojlangan mamlakatlarning o'rtacha ko'rsatkichidan (50%) sezilarli darajada past. 2024-yilda mamlakat eksporti 26,9 mlrd dollarni tashkil etdi, lekin kichik korxonalar hissasi nisbatan cheklangan. Bu kichik biznes subyektlarining global bozorlarga integratsiyalashuv darajasining pastligini ko'rsatadi.

O'zbekiston kichik korxonalarning raqobatbardoshlik indeksi 46,7 ballni (100 balldan) tashkil etdi, bu rivojlangan mamlakatlar o'rtacha ko'rsatkichidan (77,4) 30,7 ball past. Eng zaif komponentlar: eksport salohiyati (38 ball), innovatsiyalar darajasi (42 ball), texnologik jihozlanganlik (44 ball), moliyaviy barqarorlik (48 ball). Korrelyatsion-regressiya tahlili shuni

ko'rsatdiki, kichik korxonalarning raqobatbardoshligiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar: innovatsiya investitsiyalari ($r=0,82$), xodimlar malakasi ($r=0,76$), davlat qo'llab-quvvatlashi ($r=0,71$), texnologik jihozlanganlik ($r=0,68$). Bu omillarni yaxshilash kichik korxonalarning global raqobat qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Tavsiyalar.

- Eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar uchun 3-5% yillik foiz stavkasi bilan uzoq muddatli (7-10 yil) kreditlar dasturini joriy etish;
- Kreditlar hajmini 50 mln so'mdan 500 mln so'mgacha oshirish va garovsiz kreditlar ulushini kengaytirish;
- Eksport hajmiga qarab, kredit foiz stavkasini qisman qoplash mexanizmini joriy etish (masalan, eksport 100 ming dollardan oshsa, 50% foizni davlat qoplaydi).
- "O'zbekiston Eksport Krediti Agentligi"ni tashkil etish, u eksport operatsiyalarini moliyalashtirish va sug'urtalash bilan shug'ullanadi;
- Xaridor xavfi, siyosiy xavflar, valyuta xavflarini sug'urtalash mahsulotlarini ishlab chiqish;
- Xalqaro amaliyotga muvofiq sug'urta uchun davlat subsidiyasi (30-50%) berish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- Smith A. (1776). The Wealth of Nations. Methuen & Co.
- Шумпетер Й. (1982). Теория экономического развития. М.
- Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс.
- Porter M.E. (1980). Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. Free Press.
- Porter M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
- Ansoff H.I. (1957). Strategies for diversification. Harvard Business Review, 35(5), 113-124.

- Hamel G., Prahalad C.K. (1994). Competing for the Future. Boston: Harvard Business School Press.
- Root F.R. (1994). Entry Strategies for International Markets. Jossey-Bass.
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishida xorijiy tajriba. ResearchGate, 2024.
- Boutillier S. (2019). Small entrepreneurship, knowledge and social resources in a heavy industrial territory. Journal of the Knowledge Economy, 10, 997-1018.
- Koch L.V., Kunevich K.A. Rossiya federatsiyasi va boshqa xorijiy mamlakatlarda kichik biznes mezonlari tahlili.
- Konishcheva D.V. Kichik biznes obyektni baholash uchun kompleks yondashuv.
- Sattorova S.B., Shakirova F.B. Kichik biznes faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash nazariyasi. Scientific Journal Impact Factor.
- Aripov O. (2018). Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi. "Namangan" nashriyoti, T.
- Egamgamberdieva N. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish.
- Suvonov I., Yoqubjonov A. Kichik biznes va eksport bog'liqligi.
- Xursanaliyev, Ismanov, Qudbiyev, Mamasolayeva, Qulliyev, Ne'matova, Ikromov. O'zbekiston eksport salohiyatidan samarali foydalanishda kichik biznesning ahamiyatini oshirish yo'llari, 2022-2024.
- Turdibayeva M. (2025). O'zbekiston Respublikasi Toshkent viloyatining eksport salohiyati: Maykl Porterning raqobatdoshlik ustunliklari modeli asosida tahlil. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil.
- Gofurov U. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlari.
- Aleksandrov S., Iskandarov R. Raqamli iqtisodiyot va kichik biznes.
- Gurov L. (2020). Kichik biznesning iqtisodiy ahamiyati.
- Akbarova B.Sh. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlik.
- Kichik biznes subyektlarini samarali investitsiyalashning ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi. ResearchGate, 2023.
- O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari. ResearchGate, 2024.
- Xodiyev B., Qosimova M., Samadov A. (2010). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. TDIU.
- Salamov I., Qudratov T., Qudratova I. (2015). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (Ma'ruzalar kursi). Samarqand.